

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH METODIKASI (TABIY FANLAR MISOLIDA)

TerDUPI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi **Sh.S.O'roqova**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarini individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirish metodikasi (tabiiy fanlar misolida) mavzusining mohiyati ochib berilgan. O'sib kelayotgan yosh –avlod qalbiga individual yondashuv asosida yo'l topish maqsadga muvofiq ekanligi va intellektual salohiyatli yoshlar atrof-muhitni asrab-avaylamog'i muhim ahamiyat kasb etgan.*

Kalit so'zlar: *individual yondashuv, intellekt, intellektual rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari, tabiiy fanlar, layoqat, qobiliyat, tirishqoqlik.*

Kirish.”-Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha - hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi. Aziz farzandlarim! Xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlar kutayotganini hech qachon yodingizdan chiqarmang! Yurtning yuksak ishonchi va umidini to'la oqlash, unga munosib bo'lish dunyodagi eng ulug' baxtdir. Shunday sharaf barchangizga nasib etsin⁵⁴- dedi Shavkat Mirziyoyev “Yoshlar forumi”dagi nutqida. Darhaqiqat bugun vatanimiz O'zbekiston “Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun” shiori ostida kundan kunga chiroy ochib borayotgan bir paytda o'sib kelayotgan yosh avlodimizning intellektual salohiyatli bo'lib yetishishlariga o'z hissamizni qo'shmog'imiz chin insoniylik burchimizdir. Aynan ushbu masalaga oid bo'lgan O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sonli Farmonini ko'rsatishimiz mumkin. Buning uchun avvalo

⁵⁴ , [25.12.202-yilda o'tkazilgan yoshlar forumidagi nutqidan]



“Intellektual salohiyat” soʻziga taʼrif berish maqsadga muvofiq boʻladi. Intellekt (lotincha: intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va oʻzgartirish, fikrlash, oʻqish-oʻrganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan koʻra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, soʻzlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi⁵⁵. Ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining intellektual salohiyatini tabiiy fanlar misolida individual yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi bugungi kunning dolzarb muammosi boʻlib qolmoqda. Oʻquvchilar bilan individual yaʼni “yakka holda, aynan oʻzi” bilan shugʻullanish juda yaxshi samara beradi. Buning uchun Individual yondashuv soʻziga taʼrif beraylik:

Individual oʻqitish – bu oʻquv jarayonining tashkil etishning shakli boʻlib, bunda pedagog tahsil oluvchilar bilan yakka-yakka shugʻullanadi, tahsil oluvchi oʻquv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil taʼlim oladi.

Individual yondashish – bu pedagogik prinsipga koʻra, pedagogik jarayonda

Pedagogning tahsil oluvchilar bilan oʻzaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida tahsil oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan oʻqitish maqsadi - bunday oʻquv jarayonini tashkil

etishda individual yondashish asosida oʻqitish yoʻllari, usullari, surʼati tanlanadi va turli oʻquv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali taʼminlanadi. Individual oʻqitish texnologiyasining afzalligi – pedagogik jarayonning oʻquvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda oʻquvchini bilim olish darajasining doimiy monitoringi amalga oshiriladi, zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi va oʻziga xos individual yondashuvga amal qilinadi⁵⁶. Taʼlim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish,

⁵⁵ [<https://uz.wikipedia.org/>].

⁵⁶ «BOSHLANGʻICH TAʼLIMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN OʻQITISH



kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta'limni fundamentallashtirish, ma'naviy mas'ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur. Binobarin, hukumatimiz yoshlar bilan ishlashda asosiy e'tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo'lgan g'arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega, ma'naviy yuksak, komil insonlar etib, yildan –yilga voyaga yetkazish, jamiyatda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga va munosib o'rin egallashiga qaratadi. "Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloq-u odobidadir, - degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullayev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida. - O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. Shunga erishish kerakki. odamlar, ayniqsa, otaonalar va o'qituvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar". O'qituvchi «Sog'lom avlod uchun» kurashchi, bor bilimi va tajribasini ta'lim-tarbiya ishiga bag'ishlagan, o'z qadrini, o'z hurmati, o'z obro'sini saqlaydigan inson. Shuning uchun vaqt oltindan, dur-u gavhardan qimmatlidir. U har bir daqiqa vaqtini to'g'ri taqsimlaydigan, bajariladigan vazifalarni hisobga oluvchi, darsga tayyorlanishi, dars o'tkazishni rejalashtiradigan, ta'lim muassasasining umumiy qo'shimcha topshiriqlarini tez va sifatli bajaradigan hamda vaqtida ovqatlanish, vaqtida dam olishni biladigan intizomli shaxsdir⁵⁷-deya ta'kidlab o'tganlar. Ushbu fikrlarga tayangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-olamga nisbatan tushunchalarni shakllantirish, ularning dunyoqarashini



rivojlantirish uchun turli xil interfaol metodlardan foydalansak bo'ladi. Bu xayrli ishga Respublikamiz olimlari va amaliyotchilari ham baholi qudrat o'z ulushlarini qo'shmoqdalar. Masalan, R.J.Ishmuhammedov ishlarida: klaster (tarmoqlar), 3x4, blits-o'yin metodlari; intervyu, iyerarxiya, muloqot, boshqaruv, bumerang texnikasi; talaba, o'qituvchi shaxsi treningi; murakkab vazifalarni qo'llash, aqliy hujum, skarabey, veyer, FSMU, sinektik muammoli o'qitish, ijodiy masalalarni hal qilish, tarozi, yelpig'ich, individual o'qitish, mualliflik texnologiyalarining mohiyati, ularning qo'llanish hollari yoritilgan. N.Sayidahmedovning umumiy tahriri

ostida nashr ettirilgan "Yangi pedagog texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohazalar"

(o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar) nomli ishda: yozma bahslar, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, ajurli arra, 6x6x6, qarorlar shajarasi, rolli o'yin, bahsmunozara, o'zing uchun qulay joy tanla kabi metodlaridan foydalanish bayon etilgan. N.N.Azizxo'jayevaning "Pedagogik texnologiya va pedagogi mahorat" (barcha mutaxassislik magistratura yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) nomli ishida muammoli o'qitish texnologiyasi, o'yin texnologiyasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsga e'tibor qaratish asosidagi pedagogik texnologiya, o'qitishni intensivlashtirish yoki jadallashtirish texnologiyasi, o'quv jarayoninin samarali boshqarish va tashkil etish asosidagi pedagogik texnologiyalar, o'qitishni differensiallashtirish, o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi, dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi kabilar yoritilgan. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonovlar: klassik ma'ruza, texnik vositalar yordamida o'qitish, maslahatchilik tizimi, darslik bo'yicha o'qitish, kichik guruhlar tizimi, kompyuter yordamida o'qitish, repititorlik tizimi, dasturlashtiriladigan boshqaruv, avtoritar, didaktik yo'naltirilgan, ijtimoiy yo'naltirilgan, antropologik yo'naltirilgan, pedagogik yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan, erkin tarbiyaga yo'naltirilgan, ezoterik ta'lim va tarbiyaga yo'naltirilgan, dogmatik, reproduktiv metod; tushuntirish, ko'rgazmali; rivojlantiruvchi ta'lim; muammoli, izlanishli; ijodiy metod; dasturlashtirilgan ta'lim metodi; dialogli metod; o'yin metodi; o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi; axborotli (kompyuterli)



metodi;hozirgi an'anaviy ta'lim; shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar; o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogi texnologiyalar, o'quv jaryonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar; materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar; xususiy fan pedagogik texnologiyalari; alternativ texnologiyalar; tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari; mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari; texnologiyalarni loyihalash va o'zlashtirish texnologiyalari; fanlar bilim, o'quv, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan – axborot texnologiyalari; aqliy faoliyat usullarini shakllantiriga yo'naltirilgan - operatsion texnologiyalar; estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo'naltirilgan emotsional badiiy va emotsional axloqiy texnologiyalar; shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan – evristik texnologiyalar; amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy texnologiyalar va shu kabilar. N.X.Avliyoqulov "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" nomdagi ishlarida: shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari; avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari; ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi; muammoli o'qitish texnologiyasi; individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi; tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi; dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi; kompyuterli o'qitish texnologiyasi; modulli o'qitish texnologiyasi kabilar haqida fikrlar bayon etilgan. B.L.Farberman, R.G.Musina, F.A.Jumabayevalarning ishlarida: tanqidiy fikrlashga o'rgatish, sinkveyn (axborot yig'ish), klaster (axborotni yoyish), aqliy hujum, semantik (ma'naviy) jihatlarni tahlil qilish, konseptual jadval, T-sxema, birgalikda o'qitish, munozara o'tkazish kabi texnologiyalar haqida fikr yuritiladi. M.G.Voinova, trening o'tkazish, o'yin, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum kabi texnologiyalardan oliy o'quv yurtlarida foydalanish hollarini yoritib beradi. Q.T.Olimov, S.Y.Ashurova, U.A.O'rinovlar: shaxsga yo'naltirilgan, muammoli, modulli, kompyuterli o'qitish texnologiyalari haqida fikr yuritganlar. Aqliy hujum; 6X6X6; klaster; harflar shajarasi; qora quti; beshinchisi; rasmlarni to'g'ri joylashtirish; rangli kartochkalar



bilan ishlash; video topishmoq; qor uyumi; zakovatli zukko; qarama-qarshi munosabat; bilar edim, bilib oldim, bilishni xohlayman (B-BB); zig-zag, Venn diagrammasi, ishbilarmonlik va rolli o'yin kabi o'quvchilarni faollashtirish metodlariga O'.Tolipov va M.Usmonboyevlar tomonidan nashr ettirilgan ishlar bag'ishlangan. Ushbu metodlar bilan bir qatorda **“Kim ko'p biladi?”** metodidan foydalanish ham juda yaxshi samara beradi. Bu metodning o'tkazilish usuli: O'qituvchi o'quvchidan savol so'raydi va o'quvchi o'zi bilganlarini aytadi shu jarayonda o'qituvchi o'quvchining fikrini to'ldirib to'g'ri javobni aytadi. Bu metod orqali o'qituvchi dars reglamentidan chiqib ketmagan holda o'quvchining aqliy salohiyatini, o'zlashtirish darajasini bilib oladi hamda o'zlashtira olmay qolgan tushunchalarini o'zi to'ldirish bilan birga o'tayotgan mavzusini o'quvchining qay darajada anglab olganligiga amin bo'ladi. Bu savol-javob orqali darsda o'tirgan o'quvchilar ham taassurotlarga ega bo'ladi. Zamonaviy ta'lim bilan hamnafas bo'lib yashayotgan ushbu zaminda ham vaqtdan, ham maqsadga erishish biz o'qituvchilarning oldimizda turgan eng asosiy va mas'uliyatli vazifadir. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual rivojlanishida bobomiz Ibn Sinoning quyidagi tavsiyalari yaxshi samara beradi: 1) bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish. 2) berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborini qaratish. 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish. 4) o'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xusu siyatlarini nazorat qilish. 5) bolalarni fanga qiziqтира olish. 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish. 7) bilimlarni o'quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishd tushunarli olib borish. 8) har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. 25.12.202-yilda o'tkazilgan yoshlar forumidagi nutqidan...
2. <https://uz.wikipedia.org/>
3. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" 2021.-b.305
4. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.
5. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva. –T.: Chopon NMIU, 2012. 90-bet.

